

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PSIXOLOGINI
KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PSIXOLOGINI KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI

SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat maktabgacha ta'lim tashkilotlari psixologlarining kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo'llaniladigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatlilik va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining fan bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, olib boradigan korreksion-pedagogik faoliyatini tashkil etish kompetensiyasi, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi "Davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 87-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi "Davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 233-son buyrug'i.

III. Baholash qamrovi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi uchun mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy

test topshirig'ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 90 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi psixologiya fanining asosiy mazmun yo'nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari psixologiya fani asoslari, maxsus psixologiya, maktabgacha ta'lim metodikasi va pedagogik mahoratga oid bilim hamda ko'nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni maktabgacha ta'limning davlat ta'lim standartlari, amaldagi o'quv dasturlari hamda fan bo'yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Yosh psixologiyasining maqsadi, vazifalari va tadqiqot metodlari (1-4 savollar)		
Psixik taraqqiyot qonuniyatlari	-Yosh davrlari (ontogenez) psixologiyasi fani, maqsad va vazifalarini bilish; -psixik taraqqiyot qonuniyatlarini, ichki va tashqi omillarni tahlil qilish, rivojlanishni harakatga keltiruvchi mexanizmlarni anglash, psixik rivojlanish qonuniyatlarini real vaziyatlarda qo'llay olishni tushunish; -yosh davrlari psixologiyasi metodlarini amaliyotda qo'llash; -psixik rivojlanish mohiyati, psixik rivojlanish omillari va harakatlantiruvchi kuchlarini tushunish.	4
2. Oila psixologiyasi (5-10 savollar)		
Oila psixologiyasi (oila va oilaviy munosabatlarning farzand tarbiyasiga ta'siri)	-Oila tushunchasi va uning psixologik asoslarini bilish; -oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oilada shaxs rivojlanishini tahlil eta olish, oila krizislari va ularni yengish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish; -tarbiya uslublari va ularning farzand rivojiga ta'sirini anglash; -ijtimoiy-psixologik omillar va farzand rivojlanishini bilish;	6

	-oilaviy psixodiagnostika va terapiyani amalga oshirish; -oila psixologiyasining zamonaviy yo‘nalishlarini bilish.	
3. Hayotiy davrlar va rivojlanish bosqichlari psixologiyasi (11-15 savollar)		
Yosh inqirozlari. Yoshni davrlashtirish	-Psixik rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar; -yosh inqirozlari tushunchasini anglash, ularning sabablari va psixik rivojlanishdagi ahamiyatini tahlil qilish, inqirozli bosqichlarni aniqlash va ularga mos psixologik yondashuvni qo‘llash; -turli psixologik yondashuvlar asosida yoshni davrlarga bo‘lish, psixik rivojlanishning asosiy yosh davrlarini bilish; -inson hayotining psixik taraqqiyot bosqichlarini tizimli tahlil qilish, har bir davrning psixologik xususiyatlarini aniqlay olish, yoshni davrlashtirish mezonlarini tushunish.	5
4. Inklyuziv ta’lim (16-19 savollar)		
Ta’lim jarayonida individual va maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash psixologiyasi	-Inklyuziv ta’lim tushunchasi va tamoyillari, inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalarini bilish; -inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik va psixologik aspektlari, imkoniyati cheklangan bolalar toifalarini bilish; -inklyuziv sinfda o‘qitish metodikasi, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan aloqa o‘rnatish, yozish va qo‘l motorikalarini rivojlantiruvchi usullarni taklif etish; -autistik spektori buzilgan bolalarda kuzatiladigan muammolarni tushunish va takliflar bera olish; -imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalar uchun tavsiyalar bera olish.	4
5. Yosh psixologiyasi (20-35 savollar)		
Maktabgacha yosh davri psixologik xususiyatlari	-Maktabgacha yosh davrida jismoniy va psixik rivojlanish xususiyatlarini bilish; -maktabgacha yosh davrida o‘yin faoliyatini qo‘llay olish; -bilish jarayonlarining rivojlanishini tushunish; -bolaning maktab ta’limiga tayyorligi darajasini baholay olish; -maktabgacha yosh davrida o‘yin faoliyatining ahamiyatini tushuntira olish; -maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish, emotsional, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish	8

	xususiyatlarini aniqlay olish va amaliy holatlarda qo'llay olish.	
Kichik maktab yosh davrida psixik rivojlanish	-Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari bilish; -kichik maktab yoshining psixologik xususiyatlari farqlash; -maktabga moslashish davrini tahlil eta olishi; -kichik maktab yoshida o'quv faoliyati kuzatish va tahlil eta olish; -kichik maktab yoshida bilish jarayonlarining rivojlanishi kuzatuv asosida xulosalar berish.	5
Ilk o'spirinlik davrida psixik va shaxs rivojlanishi	-Ilk o'spirinlik davrining asosiy muammolarini tushunish; -o'spirinlik davriga xos shaxsiy o'zgarishlarni aniqlash, voqeaga asoslangan shaxsiy holatni tahlil qilish; -shaxsiy identifikatsiyaning xususiyatlarini bilish; -maqsad qo'yish, axloqiy dunyoqarash shakllanishi va shaxsning mustaqil rivojlanish omillarini tushunish.	3
Psixodiagnostika asoslari (36-40-savollari)		
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixodiagnostikasi	-Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik o'rganish metodlari (kuzatish, suhbat, faoliyat mahsulini tahlil qilish); -Psixologik diagnostikaning maqsadi va vazifalari; -Bolaning bilish jarayonlari, emotsional holati va ijtimoiy rivojlanishini baholash usullarini qo'llay olish; -Maktabga psixologik tayyorlik diagnostikasi; -Diagnostika natijalarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.	5
	Jami:	40 ta

**Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun
sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti**

2-jadval

1. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – mashg'ulot va uning turlarini bilish, mashg'ulotni rejalashtirish, tashkil etish va bolalar guruhini boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – guruh tarbiyachisining huquq va majburiyatlarini bilish, tarbiyachining hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, guruh jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta'lim bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	10

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir asosiy dalillar, qonunlar, ta'riflar, formula va hodisalarni yoddan bilish, tanish, esga olish.	22
2	Qo'llash	Dalil va qonunlarni tanish vaziyatlarda qo'llash, hisob-kitob qilish, grafik/diagramma tahlil qilish.	23
3	Mulohaza qilish	Notanish vaziyatda qo'llash, tahlil–sintez, sabab–oqibat bog'lanish, izohlash, baholash.	5

V. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **ball** berilmaydi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Do'stmuxamedova Sh.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X. va b. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.T., Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. 2013.
2. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. T., Faylasuflar nashriyoti, 2013.
3. Jalilova S.X. Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya. T, Innovatsion ziyo, 2020.
4. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. T., "Noshir", 2010.
5. N. Xoliyitova, D. Turayeva Umumiy psixologiya (pedagogika yo'nalishlari uchun darslik) T. – 2022.
6. A.Rasulov, Psixodiagnostika, o'quv qo'llanma. T., "Noshir", 2009.
7. Islomova N., Andullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2013
8. Karimova V., Akramova F., Lutfullayeva N. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011.
9. Shamshetova A., Melibayeva R.N., Usmanova X., Xaydarov I. Umumiy psixologiya. –T.: 2018.
10. Nishonova Z.T., Alimova G.Q. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T., 2006.
11. Olimov L. Ya., Nazarov A. M. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi (o'quv qo'llanma) T. 2020 y.
12. Oila psixologiyasi – O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi D. Abdullaeva, R. Yorqulov, N. Atabaeva-2015y
13. Inklyuziv ta'limda korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar – metodik qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi-2025.
14. Umumta'lim psixologlari uchun uslubiy qo'llanma – maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi, 2025-y.
15. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 29-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkiloti va pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida" 323 – son buyrug'i.

Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: "Bayoz" nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. X.Meliyev, O.Jamoldinova. K.Risqulova "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati" Тошкент – 2021.
4. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". Darslik. Tafakkur bo'stoni nashriyoti. 2019.

Normativ-huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 423-son Qarori, 2025 yil 8-iyul.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.